

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

DAVLAT MUZEYLARINING BOLALAR VA ULARNING OTA-ONALARIGA OCHIQLIGINI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi PQ-2133-son qarori bilan tasdiqlangan "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi 9-bandining ijrosini ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongiga xalqimizning boy milliy madaniy merosi va tarixiy o'tmishini hurmat qilish va e'zozlashni singdirish hamda aholi dam olishini mazmunli tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, barcha davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta'minlash maqsadida haftaning har seshanba va juma kunlari bolalarning respublika davlat muzeylariga bepul kirishi kunlari etib belgilansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining aholi, ayniqsa o'quvchi yoshlarning dam olishini mazmunli tashkil etish maqsadida har yili 2 — 8-sentabr kunlari "Muzeylar haftaligi"ni va uning doirasida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish hamda aholining shu kunlari davlat muzeylariga bepul kirishi to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi bilan hamkorlikda "Muzeylar haftaligi"ni va uning doirasidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va ular amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi 68-son qarori bilan tasdiqlangan Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish tartibi va shartlari to'g'risidagi [nizomga ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.I. Ikramov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2014-yil 11-iyul,
189-son

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-
iyuldagi 189-son qaroriga
ILOVA

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish tartibi va shartlari to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. [5-band](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"5. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hamda muzeylarda turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish fuqarolar uchun pullik xizmat shaklida tashkil etiladi, ushbu Nizomda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno".

2. Quyidagi mazmundagi 5¹-band qo'shilsin:

"5¹. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish uchun har yilning 2 — 8-sentabr kunlari o'tkaziladigan "Muzeylar haftaligi" doirasida aholi davlat muzeylariga bepul kiritiladi".

3. [6, 7 va 8-bandlar](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"6. Bolalar va o'smirlarning madaniy-tarixiy merosdan foydalanish va ular bilan tanishish imkoniyatini kengaytirish maqsadida haftaning har seshanba va juma kunlari 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va ularga hamrohlik qiluvchi ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) Milliy muzey

fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish uchun davlat muzeylariga bepul kiritiladi.

7. 18 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhini davlat muzeylarida turgan Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini bepul kirib ko'rish tegishli ta'lim (tarbiya) muassasasi yoki ularni guruhlarga jamlagan tashkilot rahbariyati hamda davlat muzeyi hamkorligida ishlab chiqilgan reja-jadval asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

ta'lim (tarbiya) muassasasi yoki ularni guruhlarga jamlagan tashkilot rahbariyati oldindan muzeyga tashrif buyuruvchilar tarkibini, bolalar guruhlariga hamrohlik qiluvchi mas'ul shaxsni belgilab, muzey ma'muriyatiga yozma ravishda taqdim etadi;

muzeyga bolalar ta'lim (tarbiya) muassasasi yoki ularni guruhlarga jamlagan tashkilot tomonidan belgilangan mas'ul shaxs hamrohligida guruh bo'lib tashrif buyuradi;

tashrif buyuruvchilar tegishli muzeyning ichki tartib-qoidalarini bilan tanishtiriladi.

Bolalar guruhlariga hamrohlik qiluvchi ikki nafargacha mas'ul shaxsga davlat muzeyida ushbu bolalar guruhi bilan birga bepul kirishiga ruxsat beriladi.

8. 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning davlat muzeylarida turgan Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini bepul kirib ko'rish quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi:

muzey tematikasiga mos holda tegishli o'quv fanlari mavzulariga oid mashg'ulotlar tashkil etish hamda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash;

muzeylarda milliy bayramlar, qadriyatlar hamda buyuk siymolar hayoti va ijodiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, kechalarda ishtirok etish va ko'rgazmalar hamda ekspozitsiyalarni kirib ko'rish;

bolalarning dam olishini mazmunli tashkil etish, ularda tarixiy o'tmishni hurmat qilish va qadriyatlarni e'zozlashni shakllantirish".

4. **II bo'limga** quyidagi mazmundagi 8¹ va 8²-bandlar qo'shilsin:

"8¹. Davlat muzeyiga bepul kirgan shaxslarga xizmat ko'rsatish, shuningdek davlat muzeyi xodimi tomonidan ekskursiya xizmatini ko'rsatish davlat muzeyiga tashrif buyuruvchilar uchun belgilangan umumiy tartibda amalga oshiriladi.

8². Davlat muzeyiga 18 yoshga to'lmagan bolalar va aholining bepul kirishi hisobini yuritish maxsus jurnal asosida amalga oshiriladi. Jurnal shakli Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadi".

5. **10-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"10. Tashrif buyuruvchilar ushbu Nizom hamda boshqa qonun hujjatlari talablariga, shuningdek muzeyning ichki tartib-qoidalariga rioya qilishlari shart.

Tashrif buyuruvchilar tomonidan muzey eksponatiga ziyon yetkazilganda javobgarlik qonun hujjatlariga asosan belgilanadi".

6. Quyidagi mazmundagi 13-band qo'shilsin:

"13. Ushbu Nizomning muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini (jumladan davlat muzeylarida turgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini bepul) kirib ko'rish tartibi va shartlari bilan bog'liq qoidalarini muzey hududining tashrif buyuruvchilar uchun tanishishga qulay bo'lgan joyiga o'rnatiladi".

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 29-son, 358-modda)